

I.f.d., prof. Jasur RAZZAQOV

Toshkent davlat agrar universiteti

BIZNES LOYIHALARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH: NAZARIY JIHATLAR VA YO'NALISHLAR

Mazkur maqolada biznes loyihalari samaradorligini baholashning nazariy asoslari va yo'nalishlarini o'rganishda turli ilmiy tadqiqot ishlariga e'tibor qaratilgan. Biznes loyihalari samaradorligini baholashning yo'nalishlari va usullari, biznes loyihalari samaradorligini baholashda foydalaniladigan ma'lumotlar va ko'rsatkichlar tahlil qilingan. Amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida tegishli xulosalar va takliflar shakllantirilgan.

Tayanch so'zlar: biznes loyihasi, loyiha samaradorligi, biznes loyihasini baholash, sof joriy qiymat, daromadlilikning ichki me'yori, risklarni baholash, aksiyadorlar tarkibi.

EVALUATION OF EFFICIENCY OF BUSINESS PROJECTS: THEORETICAL ASPECTS AND DIRECTIONS

In this article, attention is paid to various scientific research studies in the study of the theoretical foundations and directions of evaluating the effectiveness of business projects. The directions and methods of evaluating the effectiveness of business projects, the data and indicators used in evaluating the effectiveness of business projects were analyzed. Relevant conclusions and proposals are formed based on the conducted research.

Keywords: business project, project effectiveness, business project evaluation, net present value, internal rate of return, risk assessment, stockholder structure.

Kirish

Biznes loyihalarining samarali amalga oshirilishi iqtisodiyotda biznes subyektlari sonini oshirishga, faoliyat samaradorligini yaxshilashga hamda iqtisodiyotdagi pul oqimini oshirishga xizmat qiladi. Biznes loyihalari samaradorligini oshirish bir qator mikro va makro darajadagi omillarga bog'liq bo'lib, mikro darajadagi omillar korxona faoliyati natijasida yuzaga keladi. Makro darajadagi omillar esa mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida shakllanishini ta'kidlash mumkin. Biznes loyihalari samaradorligini baholashda biznes loyihasining ko'rsatkichlari inobatga olinadi, ya'ni biznes loyihasidagi risklar tahlili, moliyaviy tahlil, pul oqimlari tahlili va ularning kutilmalari kabilar muhim ahamiyatga ega. Biroq, milliy amaliyotda amalga oshirilayotgan loyihalar samaradorligini baholash har doim ham to'g'ri amalga oshirilavermaydi. Chunki, risklarni baholash, moliyaviy tahlil, pul oqimlarini

prognoz qilish metodologiyalaridan samarali foydalanish yetarlicha samarali yo'lga qo'yilmagan, shuningdek, bunday tahlillarni amalga oshirishda yuqori salohiyatli kadrlar yetishmasligi muammosi ham to'liqligicha o'z yechimini topmagan. Shu sababli biznes loyihalari samaradorligini baholashning nazariy asoslari va yo'nalishlarini o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Turli tadqiqotchilar biznes loyihalari samaradorligini baholash masalalari o'rganilmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda biznes loyihalari samaradorligini baholash o'zining muhim ahamiyatini ko'rsatmoqda. M.Zada va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra "loyihani boshqarish samaradorligi (PME) loyihani boshlashdan tortib to amalga oshirishgacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga olishi lozim. Loyihani boshqarish samaradorligi, shuningdek, loyihaning ko'lamini aniqlash, xarid qilish tartib-qoidalarini ishlab chiqish, rivojlanishini kuzatib borish va belgilangan muddatda to'lovlarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi" [1]. Biznes loyihalarini moliyalashtirishda loyihani boshqarish samaradorligini aniq belgilash lozim.

E.R. Yescombe "kreditorlar tomonidan riskni baholash ma'lum bir riskning loyihaning hayotiyligiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan moliyaviy ta'siri bilan bir qatorda uning haqiqatda sodir bo'lish ehtimoliga ham asoslanishi" [2]ga e'tibor qaratgan. Mazkur jihat biznes loyihalari samaradorligini baholashda inobatga olinishi zarur.

Z. Wang va boshqalar "loyihani baholash jarayoni bosqichma-bosqich yagona iqtisodiy baholashdan ko'p o'lchovli kompleks baholashgacha bo'lgan jarayonni qamrab oladi. Loyihaning tarmoq xususiyatidan kelib chiqqan holda uning ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirini baholashga e'tibor qaratiladi. Shuning uchun tadqiqotchilar baholash ko'rsatkichlarini tanlashda ba'zi ijtimoiy omillarni ham hisobga oladi" [3], deya ta'kidlagan. Loyiha samaradorligini baholashda loyihaning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini aniqlash orqali mazkur loyihaning jozibadorligini belgilash mumkin.

V.Bouras "dastavval, loyihaning muvaffaqiyatli yakunlanishi xarajat, vaqt va samaradorlik (sifat)ga bog'liq, deya hisoblangan. Keyinchalik, tadqiqotchilar tomonidan loyihaning muvaffaqiyatini o'lchash uchun ko'proq mezonlar qo'shildi va bugungi kunda ko'plab jihatlariga e'tibor qaratilmoqda" [4], deya qayd etgan. Hozirda loyihaning samaradorligini baholashda ko'plab ko'rsatkichlarning inobatga olinishi loyiha riskini pasaytirishga yoki aniq hisob-kitoblarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Biznes loyihalari samaradorligini baholashda mavjud risklarni sifat va miqdoriy tahlil qilish lozim. "Risklarni sifat tahlili bu loyiha bo'yicha kutilishi mumkin bo'lgan asosiy risklarni aniqlash, loyihani amalga oshirishda uning

oqibatlarini o'rganish va risklarni pasaytirish yo'llarini (tadbirlarini) aniqlashdan iborat. Risklarning miqdoriy tahlili bu risklilik nuqtai nazaridan loyiha bo'yicha bir qator omillarning o'zgarishi natijasida loyiha samaradorligi mezonlarining o'zgarishini o'rganishdan iborat" [5].

D.Abdurahimova tijorat banklarida loyihalar samaradorligini oshirishda zamonaviy moliyaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlariga to'xtalib o'tgan. "Jarayonlarni avtomatlashtirish, tavakkalchiliklarni boshqarishni takomillashtirish va mijozlar uchun shaxsiylashtirilgan xizmatlarning barchasi bankning rentabelligi va umumiy raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi" [6]. Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalari moliyalashtirilishida moliyaviy texnologiyalar o'rnini qayd etish joiz.

Biznes loyihalarida qulay moliyalashtirish usulini tanlash biznes loyihalari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mamlakatimizda bank kreditlari biznes loyihalarini samarali amalga oshirishda keng tarqalgan moliyalashtirish shakli hisoblanadi. "Global moliyaviy inqirozdan so'ng markaziy banklar moliyaviy barqarorlikni himoya qilish va real iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash uchun o'zlarining kredit faoliyati hajmi va ko'lamini oshirdi. Markaziy bankning kreditlash operatsiyalari odatda ta'minlangan (repo) operatsiyalari bo'lib, unda markaziy bank foiz stavkasini va tegishli garov aktivlarini belgilaydi. Kontragentlar ushbu shartlarga muvofiq likvidlikni ta'minlashga harakat qiladi" [7].

Biznes loyihalari samaradorligini baholashda "moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarga investitsiya qilish samaradorligini baholash va natijalarini dastlabki modellashtirish vositalarini shakllantirish investitsiya jarayoni ishtirokchilarining xavf darajasini va salbiy kutishlarini kamaytirishga yordam beradi va qabul qilishni osonlashtiradi" [8]. Biznes loyihalari samaradorligini baholashda investitsiya samaradorligini baholash ham muhimdir.

"Loyihani boshqarish kompaniyaning strategik maqsadlari va uning operatsion va taktik faoliyati o'rtasidagi ajralmas vositadir, ayniqsa, loyihalarni boshqarish usullaridan foydalanish samaradorligi mahalliy va xorijiy kompaniyalar misolida isbotlangan" [9]. Yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan holda aytish lozimki, biznes loyihalari samaradorligini baholash mamlakatimizda aktual masalalardan hisoblanadi.


Tadqiqot metodologiyasi

Biznes loyihalari samaradorligini baholashning nazariy asoslari va yo'nalishlarini o'rganishda ilmiy abstraksiyalash, analiz, sintez, induksiya, deduksiya kabi metodlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Biznes loyihasining samaradorligini baholash bu loyihaning qiymatini yoki samaradorligini baholashning tizimli jarayoni bo'lib, u korxona o'z maqsadiga qanchalik darajada erishganligini aniqlash uchun amalga oshiriladi. Bugungi kunda loyihalash, monitoring va baholash natijalarga asoslangan loyiha boshqaruvining bir qismidir. Loyiha siklini boshqarish, xususan, monitoring va baholashning asosiy g'oyasi loyihaning resurslari va faoliyatini boshqarish uchun mas'ullarga qisqa muddatli va uzoq muddatli rivojlanish natijalarini doimiy ravishda oshirishga yordam berish hisoblanadi. Loyihalarni baholash va o'rganishning turli jihatlari mavjud bo'lib, ulardan eng muhimlari sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin. Birinchidan, loyiha samaradorligini baholashda loyiha monitoringi muhim hisoblanib, monitoring bu muntazam tahlil qilish uchun asosiy samaradorlik muntazam ravishda ma'lumotlarni yig'ish orqali loyihaning borishini doimiy ravishda kuzatishdir. Ikkinchidan, natijalar va natijalarga qaratilgan yillik loyihalarni ko'rib chiqish o'z-o'zini baholashning bir shakli bo'lib, unda manfaatdor tomonlar mavjud monitoring va baholash ma'lumotlarini hisobga olgan holda loyiha o'z maqsadlariga erishish yo'lida qanchalik yaxshi rivojlanayotgani haqida fikr yuritiladi. Loyihani ko'rib chiqish, odatda, har yili o'tkaziladi, lekin muayyan masalalar uchun ham tashkil etilishi mumkin. Uchinchidan, loyihani baholash loyihani boshqaradigan strategiya va prognozlar haqida chuqur fikr yuritish imkoniyatini beradi. Mazkur jarayon loyihaning maqsadlariga erishish yo'lida erishilgan yutuqlarni baholashga va uning strategiyasiga tuzatishlar kiritishga xizmat qilishi mumkin.


Biznes loyihasining samaradorligini baholash biznes egalari uchun muhim jarayon bo'lib, biznesning kelajagini prognoz qilishga yordam beradi. Biznes loyihasining samaradorligini baholashning bir qator yo'nalishlari mavjud bo'lib, quyidagilarni qamrab olishi mumkin (1-rasm).



1-rasm. Biznes loyihasining samaradorligini baholash yo'nalishlari

Muallif tomonidan shakllantirilgan.


Loyiha samaradorligini baholash yo'nalishlariga moliyaviy tahlil, risklarni baholash, aksiyadorlar tahlili, xarajat-daromad tahlili kabilarni kiritish mumkin. Mazkur yo'nalishlarni tahlil qilish orqali biznes loyihasining istiqboliga ta'sir ko'rsatuvchi jihatlar ma'lum darajada namoyon bo'lishi mumkin.



2-rasm. Biznes loyihasining samaradorligini baholashda foydalaniladigan hisobot shakllari

Muallif tomonidan shakllantirilgan.


Biznes loyihasining samaradorligini baholashda ma'lumotlar bazasini shakllantirib olish maqsadida bir qator hisobot shakllaridan foydalaniladi (2-rasm). Xususan, buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot va pul oqimlari harakati to'g'risidagi hisobot biznes loyihasining samaradorligini baholashda foydalaniladigan hisobot shakllari hisoblanadi.



3-rasm. Biznes loyihasining samaradorligini baholash usullari

Muallif tomonidan shakllantirilgan.

3-rasmda biznes loyihasining samaradorligini baholashda oddiy va diskontlashga asoslangan usullardan foydalanish mumkinligi aks ettirilgan. Aksariyat hollarda biznes loyihasining samaradorligini baholashda diskontlashga asoslangan usullarga ustuvorlik beriladi. Bunda sof joriy qiymat (NPV), daromadlilikning ichki me'yori, investitsiya rentabelligi, diskontlangan qoplanish muddatini aniqlash kabilar keng qo'llaniladi.



4-rasm. Xorijiy mamlakatlarda loyihalar samaradorligini baholash usullari [10]

Xorijiy mamlakatlarda loyihalar samaradorligini baholash usullari sifatida ko'plab usullarni e'tirof etish mumkin. Mazkur jarayonda umum qabul qilingan usullar sifatida UNIDO, TACIS, BFM usullaridan keng foydalanilsa, xususiyl hollarda xizmat turlaridan kelib chiqqan holda bir qancha usullar qo'llaniladi (4-rasm). Konsalting xizmatlarida dunyoning 4 ta eng yirik auditorlik kompaniyalari hisoblangan KPMG, Deloitte, EY, PwC kabi kompaniyalarning yondashuvlariga

alohida e'tibor qaratiladi. Bank xizmatlarida esa mazkur jarayon biroz farq qilishini kuzatish mumkin.

Xulosa

Biznes loyihalari samaradorligini baholashning nazariy asoslari va yo'nalishlarini o'rganishda bir qator xulosalar aks ettirilgan:

Birinchidan, loyihani boshqarish samaradorligi loyihani boshlashdan tortib to amalga oshirishgacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga olishi lozim. Loyihani boshqarish samaradorligi, shuningdek, loyihaning ko'lamini aniqlash, xarid qilish tartib-qoidalarini ishlab chiqish, rivojlanishini kuzatib borish va belgilangan muddatda to'lovlarni amalga oshirish kabilarni qamrab olish zarur;

Ikkinchidan, biznes loyihalari samaradorligini baholashda mavjud risklarni sifat va miqdoriy tahlil qilish lozim. Chunki mazkur jarayonda moliyaviy risklarni baholash muhim bosqichlardan biridir.

Uchinchidan, biznes loyihalari samaradorligini baholashda pul oqimlarini prognoz qilishga alohida e'tibor qaratish lozim. Mazkur jarayonda sof joriy qiymat, daromadlilikning ichki me'yori kabi ko'rsatkichlarni ham inobatga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Muhammad Zada, Jawad Khan, Imran Saeed, Shagufta Zada, Zhang Yong Jun. Linking public leadership with project management effectiveness: Mediating role of goal clarity and moderating role of top management support. // Heliyon, Volume 9, Issue 5, May 2023.

2. E.R. Yescombe. Principles of Project Finance. // Academic Press, Clifornia, USA, 2002. – P. 138.

3. Zhaohua Wang, Qiang Liu, Bin Zhang. What kinds of building energy-saving retrofit projects should be preferred? Efficiency evaluation with three-stage data envelopment analysis (DEA). // Renewable and Sustainable Energy Reviews, Volume 161, June 2022.

4. Vassilis K. Bouras. A Method for the Evaluation of Project Management Efficiency in the Case of Industrial Projects Execution. // Procedia - Social and Behavioral Sciences, Volume 74, 29 March 2013, Pages 285-294

5. Xujamkulov D.Yu., Ismailov D.A. Investitsiya loyihalarini boshqarish. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2019. – 302 b.

6. Karimovna A. D. EFFICIENCY OF USING FINANCIAL TECHNOLOGIES IN BANKS. //International journal of economic perspectives. – 2023. – T. 17. – №. 12. – C. 12-18.

7. Abdikarimova D. BANK KREDITLARI GAROV TA'MINOTINI BAHOLASH MASALALARI //Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка. – 2023. – С. 125-127.

8. Timur Tursunov Toxirovich. (2023). Korxonada amalga oshirilgan investisiya loyihasi. // Лучшие интеллектуальные исследования, 11(4), 64–67. Retrieved from <http://web-journal.ru/index.php/journal/article/view/2210>

9. Komilov Otabek Zafar o'g'li. (2023). Biznesni rivojlantirishni boshqarishda loyiha metodlaridan foydalanish. Образование наука и инновационные идеи в мире, 32(2), 40–43. Retrieved from <https://newjournal.org/index.php/01/article/view/9235>

10. Астанакулов О. Т. Инвестиция лойиҳаларини баҳолаш ва таҳлил қилишнинг хориж тажрибаси ҳамда улардан мамлакатимизда фойдаланиш имкониятлари // ТГЭУ-УГЭУ. – С. 270.